



**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK KOMPETENTLIK
SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.**

Boqiyev G'ulomjon Ochilovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Pedagogika va o'qitish metodikasi” kafedrası v.b. professori

Bozorova Iroda Ergash qizi

Pedagogika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalarining nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Pedagogik kompetentlikning tarkibiy komponentlari, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metod va texnologiyalar, shuningdek ta'lim jarayonida kompetentlikni monitoring qilish mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Maqola ta'lim samaradorligini oshirish hamda kelajak o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni o'z ichiga oladi

Kalit so'zlar: Pedagogik kompetentlik, bo'lajak o'qituvchi, kompetentlikni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik diagnostika, ta'lim jarayoni, kompetensiya modeli, refleksiya.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты технологий формирования и развития качеств педагогической компетентности будущих учителей. На научной основе анализируются структурные компоненты педагогической компетентности, инновационные методы и технологии, способствующие их развитию, а также механизмы контроля компетентности в образовательном процессе. В статье содержатся предложения и рекомендации по повышению эффективности образования и совершенствованию профессиональной подготовки будущих учителей.

Ключивые слова: педагогическая компетентность, будущий учитель, развитие компетентностей, инновационные технологии, интерактивные методы, профессиональная подготовка, педагогическая диагностика, образовательный процесс, модель компетентностей, рефлексия.

Abstract: This article covers the theoretical and practical aspects of the technologies for the formation and development of pedagogical competence qualities in future teachers. The structural components of pedagogical competence, innovative methods and technologies that serve their development, as well as mechanisms for monitoring competence in the educational process are analyzed on a scientific basis. The article contains proposals and recommendations for increasing the effectiveness of education and improving the professional training of future teachers



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Keywords *Pedagogical competence, future teacher, competence development, innovative technologies, interactive methods, professional training, pedagogical diagnostics, educational process, competency model, reflection.*

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bo‘lajak o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik kompetentligini shakllantirishdir. Ta’lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash va o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan asosda tashkil etish o‘qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Shu bois pedagogik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Maqolaning maqsadi — bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirishning samarali texnologiyalarini ilmiy asosda yoritish, mavjud yondashuvlarni tahlil qilish va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Pedagogika fanida pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta’lim tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natigaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlariga ega bo‘lish degan xulosaga kelinadi. Zamonaviy ta’limning asosiymaqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan o‘z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Bu haqida mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “jamiyatning eng dolzarb muammolarini yuqori saviyali mutaxassis kadrlar hal etishi, ularning kasbiy bilimdonligi, professional kompetentligi, yuksak mahorati, boy ma’naviy-axloqiy qiyofasi, madaniy saviyasiga bog‘liq ekanligi isbot talab qilmaydigan harakatdir” Bo‘lajak o‘qituvchilardan talab qilinadigan kompetentlik quyidagi turlarga ajratiladi: bo‘lajak o‘qituvchi tomonidan o‘z bilimini muntazam boyitib borish, egallagan malakalarini takomillashtirishga tayyor bo‘lish, zamon yangiliklaridan boxabar bo‘lish, ta’lim jarayonida axborot kamunikatsiya, information texnologiyalari va o‘qitish vositalarining barcha turini qo‘llayolish ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lish.

Kompetentlik ingl. *competence* so'zidan olingan bo'lib, qobiliyatli ma'nosini anglatadi. Bu degani bo'lajak kasb egasi tomonidan egallanadigan va faoliyatda qo'llaniladigan nazariy bilimlardan unumli foydalanish demakdir. Ya'ni yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahoratni iqtidorli namoyon eta olish tushunchasi bilan belgilanadi. Kompetentlik tizimida kasbiy kompetentlik asosiy metodologik hodisa bo'lib hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi demakdir. Kompetensiyalar faoliyatning samarali bajarilishini ta'minlaydigan harakatlarning umumlashtirilgan usullari. Bu insonning o'z malakasini amalda qo'llash qobiliyatidir.

Pedagogikada kompetensiyaga asoslangan yondashuv tushunchasi XX asrning 1980-yillarida, "Perspektivlar" deb nomlangan jurnalda ilk bor tilga olingan. V.D Landsherning





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ham shu mavzudagi "Minimal vakolat" konsepsiyasi nomli maqolasi yondashuvlar haqida so'z boradi. Dastlab yondashuv haqida emas, balki faqat "kompetensiya", "kasbiy kompetensiya" tushunchalari, shuningdek ta'limning maqsadi va natijasi sifatida shaxsning kasbiy kompetensiyasi haqidagi fikrlar maydonga keldi. Kompetensiya atamasi dastlab "mavzuni chuqur bilish" deb tushunilgan. Keyinchalik kompetensiya atamasiga keng ma'no izoh berilib, uning ko'lami va mazmunini kengaytirdilar.

Kompetentlik atamasi «samaradorlik», «erishish», «muvaffaqiyatlilik», «tushunish», «natijalilik», «ega bo'lish», «sifat», «miqdor» so'zlari yordamida ta'riflanadi, shu bilan birga ko'pgina mualliflar tashxislashdagi qiyinchiliklarni qayd etgan. L. Spenser va M. Spenserlarning ta'kidlashicha, kompetensiyalarning shakllanishi ularni o'lchash va xususiyatlarini aniqlash qiyinchiligi bilan ortga suriladi. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishdagi yana bir muhim komponent - o'qituvchi, uning kasbiy kompetentligi va innovatsion faolligi hisoblanadi. Ta'limda faqat qiziqishga tayanib qolish ham motivatsiyaning asosli samarasi bo'la olmaydi. Bunda eng muhim samarali usul motivatsion-muammoli vaziyatlarni quyish yoki o'rganilayotgan predmetning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus bilishga oid vazifalarning qo'yilishidir. Hozirgi ta'lim talabi bo'lajak o'qituvchidan quyidagilarga tayyor bo'lishni kutadi, ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish, o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish, muloqot va hamkorlikka asoslangan ta'limni qo'llash, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, differensial va individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish. Shu bois kompetentlikni rivojlantirish tizimli, ilmiy asoslangan texnologiyalar orqali yo'lga qo'yilishi kerak.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilangina cheklanmay, balki kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan metodik, kommunikativ, reflektiv va innovatsion ko'nikmalarning kompleks shakllanishini talab etadi. Pedagogik kompetentlikning to'liq rivojlanishi o'qituvchining nafaqat dars o'tish mahoratini, balki ta'lim muhitini boshqarish, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, hamkorlikni yo'lga qo'yish va ta'limni individuallashtirish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kompetentlikni rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan quyidagi omillarga bog'liq: talabalarga yaratilgan innovatsion o'quv muhiti, interfaol metodlarning maqsadga muvofiq qo'llanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasi, refleksiya mexanizmlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi samarali





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



muloqot. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyot jarayonida kompetentlikni shakllantirishning tizimli yondashuv asosida tashkil etilishi bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi uzluksiz o'z-o'zini baholash, mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyojni oshirish, yangilikka ochiqlik va refleksiv fikrlashni rag'batlantiradigan pedagogik muhitni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida talabalarda mas'uliyat, tashabbuskorlik, kreativlik va kasbiy faollik kabi sifatarni shakllantiradi. Umuman olganda, ishlab chiqilgan texnologiyalarni o'quv jarayonida izchil qo'llash natijasida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligi sezilarli darajada rivojlanadi. Bu esa ta'lim sifatining oshishiga, zamonaviy talablar asosida raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga hamda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarning keng qo'llanilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev R. Pedagogik muloqot va samarali o'qitish metodlari. Toshkent. 2020. Ta'lim nashriyoti. 120-135 b.
2. Islomova D. Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy dars metodlari. Toshkent. 2020. Ilm-fan nashriyoti. 33-55 b.
3. Karimova N. Pedagogik trening va interaktiv metodlar. Toshkent. 2021. Ilmiy nashrlar. 78-95 b.
4. Sultonov A. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash texnologiyalari. Toshkent. 2022. Pedagogik nashriyoti. 50-70 b.
5. Tursunov S. O'qituvchi va o'quvchi muloqoti nazariya va amaliyot. Toshkent. 2018. Universitet nashriyoti. 45-60 b.
6. Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent. 2019. Fan va texnologiya nashriyoti. 60-82 b.
7. O'razova L. Ta'limda motivatsiya va samara dars o'tish. Toshkent. 2018. Ta'lim ilmiy markazi. 102-115 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida PF-203-son farmoni. 11.09.2023.